

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**TOG'AYEV ELDOR MAXMANAZAROVICH**

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA POLIVINILKLORID UCHUN  
STABILIZATORLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUH**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori(PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Tog'ayev Eldor Maxmanazarovich**

Маҳаллий хомашылар асосида поливинилхлорид  
учун стабилизаторлар олиш texnologiyasini ishlab chiqish.....3

**Тоғаев Элдор Махманазарович**

Разработка технологии получения стабилизаторов для поливинилхлорида  
на основе местных сырьевых ресурсов .....21

**Togaev Eldor**

Development of technology for the production of  
stabilizers for polyvinyl chloride based on local raw materials .....39

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....42

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**TOG'AYEV ELDOR MAXMANAZAROVICH**

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA POLIVINILKLORID UCHUN  
STABILIZATORLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUH**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/T1404 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tktiti.uz](http://www.tktiti.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Beknazarov Hasan Soyibnazarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yodgorov Normuxammad**  
kimyo fanlari doktori

**Fayziyev Jahongir Bahromovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli ilmiy kengashning «\_27\_»\_iyun\_2024 yil soat \_09:00\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Shurobozor. Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru), [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№\_2024/25\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru), [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_06\_»\_iyun\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_06\_»\_iyun\_ dagi №\_2024/25\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



**Djalilov A.T.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof., akademik

**Qiyomov Sh.N.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., k.i.x.

**Nurqulov F.N.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyoda polivinilxlorid (PVX) turli sanoat va maishiy sohalarida keng qo'llaniladigan muhim polimer materiallardan biri hisoblanadi. PVX mahsulotlarining sifati va uzoq muddat ishlashi hamda qayta ishlash jarayoni oson bo'lishi ko'p jihatdan ularga qo'shiladigan termostabilizatorlarga bog'liq. Shu sababli, PVX uchun turli mahalliy xomashyolar, jumladan, noorganik minerallar va organik moddalardan ultrabinafsha nurlarga, rang o'zgarishshga va degradasiya jarayonlariga chidamli, hamda har xil kimyoviy ta'sirlarga bardoshli yangi avlod termostabilizatorlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda PVX uchun organik va noorganik birikmalar asosida barcha talab va standartlarga javob bera oladigan termostabilizatorlarni olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, tarkibida metal saqlagan elementorganik qo'shimchalar olish shuningdek, PVX mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'lida polimer materiallarni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligida, maishiy va sanoat tarmoqlarida ishlash sohalarini kengaytirish bo'yicha samaradorligi yuqori bo'lgan termostabilizatorlar sintez qilish va qo'llash hamda mavjud texnologiyalarni takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyolar va ikkilamchi mahsulotlar asosida import o'rnini bosuvchi yangi turdagi termostabilizatorlar ishlab chiqarish va ularni PVX tarkibiga qo'shish turli agressiv muhitlarda ishlash samaradorligini sinovdan o'tkazish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida «mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslardan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar olish texnologiyalarini yaratish»<sup>1</sup> ga qaratilgan muhim vazifalari belgilangan. Bu borada PVX mahsulotlari olishda iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz bo'lgan termostabilizatorlarni ishlab chiqarish hamda mavjud texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3264-son «Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoda polimerlarni organik qo'shimchalar bilan barqarorlashtirish bo'yicha N.M. Emanuel, G.E. Zaykov, Y.A. Shlyapnikov, Kamol Afzali., Sumit Kumar., M.A. Xegazi, Lin Vang va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. hamda O'zbekiston olimlaridan Djalilov A.T., Beknazarov H.S., Tillaev R.S., Sigonov T.D., Qurbanov F.K., Xolikov A.J., Akbarov X.I., Ikramov A., Yusupov D., Qodirov X.I., Eshmamatova N.B., Yodgorov N. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati antioksidantlar va stabilizatorlar ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar rivojlanishi azot, oltingugurt va fosfor tutgan organik birikmalar asosida rivojlantirilgan. Bundan tashqari, alkil (3,5-di-tret-butil-4-gidroksifenil)fosfon kislotalar, alkil[poli(etilenoksi)]fosforilpiridin, alkil[poli-(etilenoksi)]-fosforil-xinolin tuzlari va ularning metall komplekslari kabi yangi samarali N-, P- va S tutgan organoelement termostabilizatorlarni olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirda mahalliy xomashyolar asosida yangi, samarali hamda arzon termostabilizatorlarning turlarini kengaytirish maqsadida kimyo sanoati rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada mahalliy xom-ashyolarni fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, qayta ishlash usullarini ishlab chiqish, ularni qo'llab har xil sharoitlarda ishlatiladigan raqobatbardosh polimer kompozitsion materiallar olish texnologiyalarini yaratish hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining MU-FZ-201910142 «Minerallashgan quvur, fitting, panel va pol qoplamalari ishlab chiqishning innovatsion texnologiyasini yaratish» (2021-2022 yy.) va IZ-2020022918 «Mahalliy xomashyolar asosida polivinilxloriddan (PVX) quvur, profil, lenoleum va uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish» (2021-2022 yy.) mavzularidagi amaliy va innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** polivinilxlorid materiallari uchun azot va metall saqlagan elementorganik termostabilizatorlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida tarkibida azot va metall saqlovchi termostabilizatorlarni sintez qilishning optimal sharoitlarini aniqlash va fizik –kimyoviy xossalarini o'rganish;

p-fenilendiamin bilan kroton aldeidi hamda ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida olingan birikmalarni polivinilxlorid uchun termostabilizator sifatidagi xossalarini tadqiq qilish;

olingan qo'shimchani PVX mahsulotlarini stabilillashdagi fizik-kimyoviy va mexanik xususiyatlariga ta'sirini aniqlash;

mahalliy xomashyo asosida azot va metall saqllovchi stabilizatorlar ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida p-fenilendiamin, kroton aldegid, ftalamin kislota, ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari, polivinilxloridlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** p-fenilendiaminning krototn aldegid ishtirokida olingan hosilasi hamda ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari bilan stabillangan polivinilxlorid va polivinilxlorid asosidagi kompozitsiyalar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar natijasida olingan termostabilizatorlarning tuzilishi va tarkibi fizik-kimyoviy usullar IQ-spektroskopiya, YamR va PMR-spektroskopiya, termogravimetrik analiz va skanerlovchi elektron mikroskop kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida elementorganik termostabilizatorlar sintez qilingan;

p-fenilendiamin va kroton aldegid asosida stabilizatorlar olishning optimal sharoitlari hamda tarkibi va tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

sintez qilingan termostabilizatorlarning polivinilxlorid asosidagi materiallarning fizik-kimyoviy va mexanik xususiyatlariga ta'siri aniqlangan;

PVXni quyosh va tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun ishlab chiqilgan termostabilizatorlarning ingibirlash xususiyatlari ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlariga bog'liqligi ilmiy isbotlangan;

PVX uchun yangi turdagi p-fenilendiamin va kroton aldegid asosidagi antioksidant hamda ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida sintez qilingan termostabilizatorlar olishning prinsipial texnologik sxemasi va texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

p-fenilendiamin va kroton aldegid hamda ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida termostabilizatorlar olishning optimal sharoitlari aniqlangan;

ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida termostabilizatorlar olish usullari ishlab chiqilgan;

polivinilxlorid kompozitsiyalarini barqarorlashtirish va xizmat muddatini oshirishda sintez qilingan termostabilizatorlarning samaradorligi fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Ushbu tadqiqot doirasidagi barcha sintez qilingan termostabilizatorlarning tarkibi va tuzilishi IQ-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskop, YAMR va PMR-spektroskopiya, rentgenofaza analizi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan isbotlanganligi, shuningdek termostabilizatorlarining polivinilxlorid kompozitsiyalarini barqarorlashtirish va xizmat muddatini oshirishda samaradorligi o'rganilgan va asoslab berilgan hamda tajriba va ishlab chiqarish jarayonlarida o'tkazilgan sinov natijalari o'zaro mutanosibli bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati p-fenilendiamin va kroton aldegidi, ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari bilan hosil qilgan birikmalarini sintez qilishning optimal sharoitlarini topish bilan aniqlandi. Sintez qilingan antioksidant va stabilizatorlarning inhibirlash faolligini aniqlash hamda ularni polivinilxlorid asosidagi buyumlardagi ta'sir mexanizmlarini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati p-fenilendiamin va kroton aldegidi, ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari bilan hosil qilgan birikmalari asosida stabilizatorlarini olishning samarali texnologiyasi ishlab chiqilganligi, shuningdek ularni polivinilxlorid stabilizatsiyasida qo'llanilishi; yangi antioksidant va termostabilizatorlarni qo'llash texnologiyasini ishlab chiqishni amaliyotga tadbiq qilishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sintez qilingan antioksidant va termostabilizatorlarni olish texnologiyasini ishlab chiqarish va amaliyotda qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalariga asosida:

p-fenilendiamin va kroton aldegidi asosida antioksidant olish texnologiyasi Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining «2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan. (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024 yil 30 yanvardagi OPI 02/B 0-380-son ma'lumotnomasi). Natijada, PVX plyonkalarda stabilizator kontsentratsiyasini 0,7% qo'llash orqali fotostabilizatsiya faolligini oshirib karbonil, polien va gidroksil guruhlari paydo bo'lishini oldini olish imkonini bergan;

ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida termostabilizatorlar ishlab chiqarish texnologiyasi Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining «2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan. (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024 yil 30 yanvardagi OPI 02/B 0-380-son ma'lumotnomasi). Natijada, PVX kompozitsiyali quvurlar ishlab chiqarishda import o'rnini bosuvchi yuqori sifatli termostabilizatorni mahalliy mahsulot sifatida qo'llash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 konferensiyada shundan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 1 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning « **Polivinilxloridning termik barqarorligini oshirishda samarali stabilizatorlarni yaratish istiqbollari** » deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Polivinilxlorid uchun yuqori samarali termostabilizatorlar olish va ularning tadqiqi** » deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektlari, sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish, IQ-spektroskopiya va YAMR hamda PMR usullaridan foydalangan holda sintez qilingan birikmalarning tuzilishini aniqlashga yondashuvi tasvirlangan. Termostabilizatorlarning ingibirlash samaradorligi va ingibirlash mexanizmini aniqlashda gravimetrik, adsorbtsion hamda termodinamik tadqiqot usullari keltirilgan.

*Termostabilizatorlarni sintez qilish usullari va fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq etish.*

FS-1 stabilizatori kroton aldegid bilan p-fenilendiamin o'zaro ta'sirlashishi natijasida olingan.




**1-rasm. p-fenilendiamin bilan krotonaldegid o'rtasidagi reaksiya tenglamasi**

Bunda qaytarma sovutgichi bilan jihozlangan hajmi 500 ml bo'lgan uch og'izli kolbaga, 100 g (0,5 mol) para-fenilendiaminning spirtidagi 30% li eritmasi solindi. Tomchilatish voronkasi orqali 30 g (0,5 mol) krotonaldegid shunday tezlikda qo'shildiki, reaksiya aralashmasining harorati 10 °C dan oshib ketmasligi ta'minlandi.

p-fenilendiamin bilan kroton aldegidining o'zaro ta'sirlashishidan hosil bo'lgan mahsulot FS-1 termostabilizatorining tuzilishi va tarkibini o'rganish uchun

IQ-spektroskopiya bilan foydalanildi. p-fenilendiamin va FS-1 termostabilizatorining IQ-spektri 2-rasmda keltirilgan bo'lib IQ-spektridan ko'rinib turibdiki, hosil bo'lgan FS-1 termostabilizatorida 3369 sm<sup>-1</sup> sohada C=N– azometin guruhga tegishli yutilish chiziqlari keng hosil bo'lganligini ko'rish mumkin.




**2-rasm. p-fenilendiamin va FS-1 termostabilizatorining IQ-spektri.**

Bunda p-fenilendiamindagi –NH<sub>2</sub> guruhlarida 3197, 3304 sohasidan 3369 sm<sup>-1</sup> sohasiga keng yutilish ko'rinishida siljiganligini ko'rsatadi, bu esa o'z-o'zidan reaksiya natijasida azometin guruhlar hosil bo'lganligini tasdiqlaydi. Su bilan birga C=N– azometin guruhi 1645 sm<sup>-1</sup> sohada ham yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Bunda 1627 sm<sup>-1</sup> aninoguruhga tegishli bo'lgan yutilish sohalari 1645 sm<sup>-1</sup> ga siljiganligini ko'rsatadi. Bu han yangi azometin bog'i hosil bo'lganligidan dalolat beradi. 1716 sm<sup>-1</sup> sjasida esa qo'shbog'larga tegishli bo'lgan yutilishlarni kuzatish mumkin.

*Ftalamin kislota olish usuli va fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq etish.*


Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, biz ftal anhidridi bilan mochevinani 413 K haroratda o'zaro qizdirish orqali ftalimid sintez qilindi. Sintez qilingan ftalimid NaOH ning toyingan eritmasi orqali gidrolizga uchratildi. Gidrolizlangan ftalimid natijasida ftalamin kislotasini sintez qilish texnologiyasini ishlab chiqildi.



**3-rasm. Ftalamin kislota olishning reaksiya tenglamasi**

Sintez qilingan ftalamin kislota tarkibi va tuzilishini aniqlashtirish uchun IQ-spektrlari ham o'rganildi. Ftalamin kislota IQ-spektri 3-rasmda keltirilgan. IQ-spektrdan ko'rinib turibdiki 3498, 700, 650 sm<sup>-1</sup> sohalarda amid guruhlariga

tegishli CO-NH<sub>2</sub> boglanishi namoyon bo'lgan, 1456 va 862 sm<sup>-1</sup> da karboksil guruhining erkin –OH gidroksil guruhiga tegishli yutilish sohalari kuzatilganligini ko'rish mumkin.




**4-rasm. Ftalamin kislotaning IQ-spektroskopiyasi.**


1614, 1269 sm<sup>-1</sup> sohalarda esa amid guruhlariga tegishli –C–N bo'glariga tegishli yutilish sohalari namoyon bo'lgan. 1597 va 1570 sm<sup>-1</sup> sohalarda esa benzol halqasiga ta'luqli bog'lanishlar borligini ko'rish mumkin. Benzol halqasidagi C–H bog'larga tegishli yutilishlar esa 1070, 862, 810, 752, 719 sm<sup>-1</sup> sohalarida namoyon bo'lgan. 1348 va 1294 sm<sup>-1</sup> sohada esa C–O bog'lanishga oid yutilish yutilish to'liq uzunliklarini ko'rish mumkin.

Sintez qilingan ftalamin kislotaning tarkibi, strukturasi PMR va YaMR spektroskopiyasi yordamida o'rganildi.

Namuna sifatida olingan p-fenilendiaminning krotan aldegidi bilan hosil qilgan birikmasining <sup>1</sup>H-YAMR va <sup>13</sup>C-YAMR spektrlari olindi (5-rasm).



**5a-rasm. Ftalamin kislotaning YaMR spektri**




**5b-rasm. Ftalamin kislotaning PMR spektri**

Sintez qilingan Ftalamin kislotaning <sup>1</sup>H-YAMR-spektri tahlil qilganda (5a-rasm), –COOH guruhidagi proton signallari 11,06 m.u., NH<sub>2</sub> guruhidagi proton

signallar 7,50 m.u., benzol halqasidagi protonlar signallari esa 7,86-7,98 m.u. va 8,37 m.u. da yutulish sohalari ekanligini ko'rsatdi. Ftalamin kislotaning <sup>13</sup>C YaMR spektrida esa (5b-rasm), -COOH guruh tarkibidagi uglerod - 167,6 m.u., =C-NH<sub>2</sub> guruhdagi uglerod - 165,8 m.u., qolgan benzol halqasidagi uglerodning yutulish signallari 134,0; 132,0; 131,5; 130,1; 128,6 va 123,5 m.u. ni ko'rsatdi. Demak, olingan spektrlar ftalamin tuzilishini tasdiqlaydi.


*Ftalamin kislota tuzlarining sintezi va fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq etish.*

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda ushbu ishda vinilxlorid polimerlari uchun termik stabilizatorlar sintezi bo'yicha hozirda ma'lum bo'lgan tadqiqotlar natijalari, shuningdek, Ca, Zn va Cu tutgan termostabilizatorlarni mavjud xom ashyolar asosida ishlab chiqish va olish uchun mualliflar tomonidan taklif qilingan texnologik jarayonlar taqdim etilgan va muhokama qilingan. Ca, Zn va Cu ftalamin kislota bilan o'zaro ta'siri natijasida ularning karboksilatlarini sintez qilishni o'z ichiga oladi hamda ular asosida azot tutgan termostabilizatorlar olishni nazarda tutadi.



### 6-rasm. Ftalamin kislotaning kaltsiyli tuzini olishning reaksiya tenglamasi

Reagentlarning doimiy 1:1 nisbatidan foydalanish mahsulot unumining oshishiga olib keladi va agar reagentlar nisbati o'zgartirilsa, mahsulot hosil bo'lish unumi ham kamayadi va shuning uchun yuqori unumda mahsulot sintez qilish uchun reagentlar nisbatini doimiy 1:1 nisbatda ushlab tavsia etiladi.




7-rasm. Ftalamin kislota tuzlarining IQ spektri.


Reaksiya muhitidan turli pH qiymatlarida ajratilgan FAK-M karboksilatlarini quritilgandan so'ng, quyidagi IQ spektroskopiyasiga ega bo'ladi. Keltirilgan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng intensiv yutilish sohasi  $1600-1575 \text{ cm}^{-1}$  da joylashgan spektrlar ekanligi ko'rinib turibdi, FAK-Ca va FAK-Zn spektrida, karboksilatlar  $1674, 1573$  va  $1510 \text{ cm}^{-1}$  sohalarida ko'ringanligini ko'rsatadi. FAK-Cu spektrida bu so'rilishlar  $1683, 1575$  va  $1508 \text{ cm}^{-1}$  mintaqasida paydo bo'ladi, bu yutilishlar odatda karboksilat guruhining assimetrik valent tebranishlariga ishora qiladi.

Dissertatsiyaning «**Polivinilxlorid uchun sintez qilingan termostabilizatorlarning tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi**» deb nomlangan uchinchi bobida sintez qilib olingan FAK tuzlari uchun olingan rentgen fazali diagrammalar, FAK tuzlari bilan stabilashtirilgan PVX ning differentsial termik tahlili, kompozitsiyalarining termooksidlanish degradatsiyasi, Ftalamin kislota tuzlari asosida polivinilxlorid termostabilizatsiyasini, PVXni fotoooksidlanish destruksiysasi va ftalamin kislota tuzlari asosida stabilizatsiya qilingan polivinilxloridni SEM tahlili parametrlari keltirib o'tilgan.

Sintez qilib olingan yangi FAK strukturasi kristallik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning termik barqarorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq, rentgen nurlari diffraksiya natijalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, sintez qilingan FAK kristallik darajasini aniqlash biroz mushkullik tug'diradi.



**8a-rasm. Zn-FAK Rentgen faza diagrammasi**



**8b-rasm. Cu-FAK Rentgen faza diagrammasi**

Zn-FAK boshqa sintezlangan FAKga nisbatan katta sirt maydoni va g'ovak hajmiga ega ekanligi aniqlandi. BET usuli bilan sirt maydonini aniqlash natijalaridan Cu-FAK ning sirt maydoni va g'ovak hajmi Zn o'z ichiga olgan FAKga qaraganda ancha katta ekanligini ko'rish mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, Zn-FAK samarali adsorbent bo'lib, sanoatda ishlatishga mos keladi va PVX uchun ideal issiqlik stabilizatori bo'lishi mumkin. Shunday qilib, o'rganilgan fizik xususiyatlardan Zn-FAK termogravimetrik tahlil (TGA) va degidroxlorlanish paytida PVX destruksiysasini ingibirlash uchun eng qulay hisoblanadi.




Massa yo'qotish hodisasi asosida, termik barqarorlikni oshirishi bo'yicha FAK tuzlari quyidagi tartibda joylashadi: Zn-FAK > Cu-FAK > Ca-FAK

1-jadval.

**FAK tuzlari va PVX uchun olingan TGA ma'lumotlari.**


Namunalar	Temperatura, °C	Massa yuqotish, %	Umumiy massa yo'qotish, %
PVX	250	8,3	84,4
Ca-FAK	270	2,6	64,7
Cu-FAK	280	2,5	62,3
Zn-FAK	280	1,5	38,9

Krotonaldegid va fenilendiamin asosida sintez qilingan stabilizator FS-1 PVX plyonkalarni fotostabilizatsiya qilish uchun qo'shimchalar sifatida ishlatilgan. PVX plyonkalarni fotostabilizatsiya qilish uchun PS-1 stabilizatorining fotokimyoviy faolligini o'rganish uchun IQ spektrofotometriyasi yordamida nurlanish vaqtiga qarab karbonil va polien guruhlari hosil bo'lishi tahlil qilindi. PVX plyonkalarining to'lqin uzunligi  $\lambda = 313 \text{ nm}$  bo'lgan UB nurlari bilan nurlanishi, 11-rasmda ko'rsatilganidek, IQ spektrining aniq o'zgarishiga olib kelishini ko'rish mumkin.  $1722 \text{ cm}^{-1}$  da yutilish sohalar paydo bo'lishi mos ravishda xloroketon va alifatik keton bilan bog'liq karbonil guruhlari shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchi o'zgarish polien guruhiga tegishli  $1581 \text{ cm}^{-1}$  da kuzatildi.  $3000\text{-}3500 \text{ cm}^{-1}$  da keng tarmoqli sifatida paydo bo'lgan gidroksil guruhi 1-sxemada ko'rsatilganidek, gidroperoksid guruhining OH bilan izohlangan.



**11-rasm. PVX plyonka, oksidlangan PVX plyonkasi va PS-1 asosida stabillangan PVX plyonkasi IQ spektrining o'zgarishi.**

PVX-Ca mikroskop tahlillari natijasi o'rganilganda ushbu PVX-Ca hosil bo'lganda uni tarkibidagi kimyoviy moddalarni bir xilda tarqalganligi PVX mahsulotlariga qo'yiladigan talablarga javob beradi. PVX-Ca yuzasida va uni kattalashtirilgan elektron mikroskop tahlillarda zarrachalarni tarqalishi aniq hamda turli sifatsiz holatlar yo'qligini ko'rsatdi.



**12-rasm. PVX-Ca yuzasidagi elementlar tarqalishining elektron-mikroskopik tahlili**

PVX-Ca element tahlillari 12-rasmda ko‘rsatilgandek strukturasi bir xil darajada kimyoviy moddalarning zarrachalari borligi va taqsimlanganligi aniqlanib element tahlil yordamida ushbu kimyoviy tarkiblarni miqdorlari tahlil qilindi.

**2-jadval**


**PIBX+Ca FAK element tahlili**

Element	Massa %	Atom %
C	35.07	51.83
O	21.85	24.24
N	5.01	5.56
Cl	36.67	18.35
Ca	1.4	0.62
<b>Jami</b>	100	100

Dissertatsiyaning «**polivinilxlorid uchun yangi turdagi termostabilizatorlar olishning texnik-iqtisodiy samaradorligi va texnologik sxemasi**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida PVX uchun potentsial qo‘shimcha va termostabilizatori Ca, Zn va Cu ning ftalamin kislota asosidagi kompleksining ishlab chiqarishning texnologiyalari va samaradorligi yoritilgan.

Polivinilxlorid uchun termostabilizatorlar olishning texnologik sxemasi: resept bo‘yicha o‘lchangan 5-reaktorga 1 va 2 idishlardan boshlang‘ich mahsulotlar, ya‘ni ftal anhidridi ba mochevina solib aralastirib turgan holda 135°C da olib boriladi. Raksiya issiqlik yutilishi bilan sodir bo‘ladi. Shuning uchun reaksiyani olib borishda haroratni 135°C oralig‘ida olib borish tavsiya etiladi. Sababi yuqorida aytilganidek haroratni ushlab turilmasa reaksiyaga kirishayotgan moddalar o‘zaro ta‘siri natijasida unum past bo‘lishi mumkin. Ikkita boshlang‘ich moddalar o‘zaro ta‘sirlashishi natijasida reaksiya mahsulot hosil bo‘la boshlaydi. Reaksiya davri 1,5 – 2 soatni tashkil qiladi. Reaksiya natijasida ftalimid hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan ftalimidni ajratib olish uchun etanolda eritib ajratib olinadi

va qo'shimchalardan ajratish uchun avval unga sovuq holdagi distillangan suv bilan yuvib 7 filtrlar yordamida ajratib olinadi. So'ngra hosil bo'lgan ftalimid NaOH ning 40-% li eritmasida eritilib, qizdiriladi. Qizdirish natijasida ftalimid gidrolizga uchrashi natijasida ftalamin kislotasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan ftalamin kislotasini ajratib olish uchun 36-% li HCl kislota bilan neytrallanadi. Neyrtallash yakuniga yetgandan so'ng uni filtrlash orqali ajratib olinadi so'ngra esa hosil bo'lgan mahsulot 8-nasoslar orqali reaktorga o'tkaziladi va etanolda eritiladi. 15-reaktorga 13,14-idishdan o'lchash orqali  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{CuCl}_2$ ,  $\text{ZnCl}_2$  tuzlari solinadi va reaktorda o'zaro aralashtirish natijasida ftalamin kislotaning kompleks tuzlari cho'kmaga tushadi. Cho'kma 16 filtrlar orqali ajratib olinib quritiladi va hosil bo'lgan ftalamin kislota tuzlari 17-maydalagichda maydalanib qadoqlash uchun yuboriladi. Qadoqlangan ftalamin tuzlari PVX ga termostabilizator sifatida ishlatiladi. Hosil bo'lgan tayyor termostabilizatorlar saqlash omboriga o'tkaziladi va qadoqlab istemolchilarga yetkazib beriladi. Reaksiya yuqori bo'lmagan haroratda, texnologiyalar yanada soddalashgan tartibda olib borildi. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi 1-sxemada keltirildi.



**1-sxema. Polivinilxlorid uchun termostabilizatorlar olishning texnologik sxemasi.**

1, 2, 3, 9, 10, 13, 14 – boshlang'ich moddalar va erituvchilar uchun sig'im.  
 5, 11, 15 – reaktorlar. 4 – qaytarma sovitgich. 7, 12, 16 – filtrlar. 18 – yig'gichlar.  
 8 – nasos. 17 – maydalagich.

Polivinilxlorid uchun yangi termostabilizator olish texnologiyasini ishlab chiqish mavzusidagi yangi tarkibida kalsiy, mis va rux saqlovchi termostabilizatorlari sintez qilingan. Termostabilizatorlarni qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida: termostabilizatorlar qo'llanilgan polimer kompozit materiallar Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024-2025 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rejasiga kiritilgan. (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024 yil 30 yanvardagi ОП 02/Б 0-380-son ma'lumotnomasi). Natijada, polimerlar asosida ishlab chiqarilayotgan termoplast kompozitlarning ekspluatasion xossalarning oshirish imkonini bergan va import qilinadigan termostabilizatorlar o'rnini bosuvchi mahalliy mahsulot sifatida qo'llanildi.

### 3 – jadval

#### 1 tonna ftalimid ishlab chiqarish uchun xom ashyo narxi

№	Xom ashyolar	Xom ashyo narxi 1 kg uchun, so'm	1 tonna ichidagi, xom ashyo, kg	1 tonna o-ftalimid narxi (1000 kg)
1	Ftal angidridi	20000	1007	20 140 000
2	Karbamid	2700	408	1 101 600
<b>Jami</b>				<b>21 241 600</b>

### 4-jadval

#### 1 tonna ftalamin kislota ishlab chiqarish uchun xom ashyo narxi

№	Xom ashyolar	Xom ashyo narxi 1 kg uchun, so'm	1 tonna ichidagi, xom ashyo, kg	1 tonna o-ftalamin kislota narxi (1000 kg)
1	Ftalimid	21241,6	891	18 926 265
2	Natriy gidroksid	4696	242	1 136 432
<b>Jami</b>				<b>20 062 697</b>

### 5-jadval

#### 1 tonna Ca-FAK termostabilizatorini ishlab chiqarish uchun xom ashyo narxi

№	Ca-FAK stabilizatori	Xom ashyo narxi 1 kg uchun, so'm	1 tonna ichidagi, xom ashyo, kg	1 tonna stabilizor narxi (1000 kg)
1	FAK	20062,697	808	16 210 659,176
3	Kalsiy xlorid	2000	666	1 332 000
<b>Jami</b>				<b>17 542 659,176</b>

1 tonna termostabilizator ishlab chiqarish uchun dastlabki xomashyo narxlari faqat boshlang'ich moddaning o'zi uchun **17 542 659,176** so'm sarflanadi.

**6-jadval**

**1 tonna sintez qilingan Ca-FAK termostabilizatorning tannarxi**

1	Material xarajatlari	so‘m	17542659,17
1,1	Material nomi		
1,2	Material narxi	so‘m/kg	17542,65
1,3	Material miqdori	kg	1000
1,4	Summasi (1.2)*(1.3)	so‘m	17542650,00
1,5	Transport-tayyorlov xarajatlari (1.4)*2.5%	so‘m	438566,25
2	Ish haqi xarajatlari (2.4)+(2.5)+(2.6)	so‘m	244980,48
2,1	Ishchi razryadi		4
2,2	Ishchi razryadi stavkasi	so‘m/soat	10207,52
2,3	Ish vaqti sarfi	soat	12
2,4	Ish vaqti summasi (2.2)*(2.3)	so‘m	122490,24
2,5	Tuman koeffitsiyenti	so‘m	0
2,6	Qo‘shimcha ish haqi	so‘m	122490,24
3	Yagona ijtimoiy to‘lov (2)*12%	so‘m	29397,66
4	Umumsex xarajatlari (2)*15 %	so‘m	36747,07
5	Umumzavod xarajatlari (2)*30%	so‘m	73494,14
6	Mahsulot tannarxi	so‘m	17927278,52
7	Davr xarajatlari (6)*7%	so‘m	1254909,50
8	To‘liq tannarx (6)+(7)	so‘m	19182188,02
9	Foyda	so‘m	3836437,60
10	Ulgurji narx	so‘m	23018625,62
11	Ishlab chiqarish hajmi	tonna	110,000
12	Jami ishlab chiqarish tannarxi (8)*(11)	ming so‘m	2110040,682
13	Jami daromad (10)*(11)	ming so‘m	2532048,819
14	Jami foyda (14)-(12) yoki (9)*(11)	ming so‘m	422008,136

**7- жадвал**

**Маҳаллий ва импорт термостаблизаторларни таннархини таққослаш**

№	Stabilizatorlar	Xom ashyo narxi 1 kg uchun, so‘m	1 tonna , xom ashyo, QQS siz	1 tonna stabilizor narxi (1000 kg)
1	FAK-Ca	23018,62562	23018625,62	23018625,62
2	Ca/Zn kompozit (Indiya)	41560,250	41560250	41560250
<b>Jami foyda</b>				<b>18 541 625</b>

Ca-FAK termostabilizatorning tannarxi ishlab chiqarishda 1 tonna tayyor termostabilizatorning narxi 23018625,62 so‘mga teng ekanligi hisoblab topildi. Chetdan import qilinib PVX uchun termostabilizator sifatida foydalanib kelinayotgan Ca/Zn kompozit (Indiya) termostabilizatorning (41560250 so‘m) 1 tonnasiga nisbatan 18 541 625 so‘m samarali bo‘lib, agarda 1ta ishlab chiqarish sexi 1 yilda 1000 kg termostabilizator sarflasa yillik smaradorlik 18 541 625 so‘mni tashkil etadi.

## XULOSALAR

1. p-fenilendiamin va kroton aldegidi asosida PS-1 stabilizatori hamda ftalamin kislotaning rux, mis va kaltsiy tuzlari asosida Zn-FAK, Cu-FAK va Ca-FAK termostabilizatorlarini sintez qilish usullari aniqlandi.

2. Sintez qilingan stabilizatorlar asosida polivinilxlorid termostabilizatsiyasi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari yordamida o'rganildi hamda yangi termostabilizatorlar asosida PVX kompozitsiyalarini stabillash samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatib berildi.

3. PS-1 bilan stabillangan PVX plyonkalarda stabilizator konsentratsiyasini 0,7% gacha oshirish fotostabilizatsiya faolligini oshirib karbonil, polien va gidroksil guruhlarini paydo bo'lishi oldini olishini ko'rsatdi. Konsentratsiyaning 0,7% dan 1% gacha o'sishi bilan barqarorlashtiruvchi ta'sir biroz oshadi, shu nuqtai nazardan 0,7% optimal konsentratsiya deb taklif etildi.

4. Zn-FAK ning yuqori issiqlikka chidamliligi  $Zn^{2+}$  ning  $Ca^{2+}$  va  $Cu^{2+}$  dan katta bo'lishi tajribalar natijasida aniqlandi. Natijada, Zn-FAK karboksilat tuzlarini o'z ichiga olgan PVX kompozitsiyasi Cu-FAK va Ca-FAK karboksilatlariga qaraganda yaxshiroq termostabilizatorlar bo'lishi mumkinligi ko'rsatib berildi.

5. Stabillanmagan va stabillangan PVX kompozitsiyasi namunalarini termik destruksiya o'rganish natijasida, Friman va Kerroll usuli reaksiyaning faqat ikkinchi bosqichida qo'llanilganda ijobiy natijalar berishi hamda dastlabki bosqich uchun chiziqli munosabatlarni olish mumkin emasligi aniqlandi.

6. Sintez qilingan termostabilizatorlar PVX ni destruksiya jarayoni oldini olib, uning tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshirishi aniqlandi. Polivinilxlorid asosidagi kompozit materiallar ishlab chiqarishda ishlatiladigan Ca/Zn kompozit termostabilizatoridan samarador bo'lib iqtisodiy sof yillik foyda 18 541 625 so'mni tashkil etganligi uchun PVX stabilizatsiyasida foydalanishga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12. 2019.К/Т.87.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ХИМИЧЕСКОЙ  
ТЕХНОЛОГИИ**

---

**КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ТОГАЕВ ЭЛДОР МАХМАНАЗАРОВИЧ**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ СТАБИЛИЗАТОРОВ  
ДЛЯ ПОЛИВИНИЛХЛОРИДА НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ  
РЕСУРСОВ**

**02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2019.4.PhD/T1404.

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу [www.tkiti.uz](http://www.tkiti.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)

**Научный руководитель:**

**Бекназаров Хасан Сойибназарович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Ёдгоров Нормухаммад**  
доктор химических наук

**Файзиев Жахонгир Бахромович**  
доктор философии по техническим наукам (PhD)

**Ведущая организация:**

**Бухарский инженерно-технологический институт**

Защита диссертации состоится « 27 » июня 2024 г. в « 09:00 » часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский район, п/о Шурабазар. Тел.: (+99895) 144-67-83, e-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за №\_2024/25\_, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р-н, п/о Шурабазар, Тел.: (+99895) 144-67-83, e-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru)).


Автореферат диссертации разослан « 06 » июня 2024 года.

(протокол рассылки №\_2024/25\_ от « 06 » июня 2024 г.).



  
**А.Т. Джалилов**  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.х.н., проф., академик

  
**Ш.Н. Киёмов**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., с.н.с.

  
**Ф.Н. Нуркулов**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., проф.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В настоящее время в мире поливинилхлорид (ПВХ) является одним из важных полимерных материалов, широко используемых в различных промышленных и бытовых сферах. Качество и долговечность ПВХ-продукции, а также легкость переработки во многом зависят от термостабилизаторов, добавляемых в ПВХ. Поэтому создание нового поколения термостабилизаторов для ПВХ из различных местных сырьевых материалов, включая неорганические минералы и органические вещества, которые обладают устойчивостью к ультрафиолетовому излучению, изменению цвета и процессам деградации, а также к различным химическим воздействиям, имеет важное значение.

Сегодня в мире проводятся научные исследования по разработке технологии получения термостабилизаторов для ПВХ на основе органических и неорганических соединений, отвечающих всем требованиям и стандартам. В этом направлении особое внимание уделяется исследованиям проводимым по всему миру по применению и усовершенствованию существующих технологий, получение элемент - органических добавок содержащихся металлов и развитие производство изделий из ПВХ стабилизированных полимерные материалы, а также синтезировать термостабилизаторы с высокой эффективностью с точки зрения расширения их эксплуатационных характеристик в народном хозяйстве и в бытовой промышленности.

В нашей республике достигнуты научные и практические результаты по производству новых видов термостабилизаторов, заменяющих импортные, на основе местного сырья и вторичных продуктов, апробации эффективности этих добавок к ПВХ в различных агрессивных средах. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи, направленные на «создание технологий получения импортозамещающей продукции из местного сырья и вторичных ресурсов»<sup>1</sup>. В связи с этим большое значение в производстве изделий из ПВХ имеет производство экономичных и экологически безопасных термостабилизаторов и постоянное совершенствование существующих технологий.

